

Tarixiy talqinda XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasidagi aloqalarga oid manbalarning o'rni.

O'zMU 1-kurs magistratura talabasi

Sayfullayev Behruz Dilshod o'g'li.

Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ko'p asrlik tarxi davomida hunarmandchilik sanoati, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyat sohasida muhim yutuqlarga erishib, Eron, Xitoy, Hindiston, Arabiston, Kavkaz, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldi. O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyat sohasidagi munosabatlarida muhim yutuqlarga erishib, jahon madaniyati rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

Jumladan XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi va Rossiya bilan bo'ladigan savdo aloqalari yanada rivojlandi. Bu vaqtlarda Buxoro amirligi bilan Rossiya o'rtasidagi aloqalar, asosan, ikki tarafdin: Sibir va Orenburg savdo yo'llari orqali olib borilib, Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishida Orenburg savdo yo'li katta ahamiyatga ega bo'lib, Orenburg shaharning o'zi Rossiya va O'rta Osiyo savdosida tovar ayirboshlashning markaziga aylangan¹.

XIX asrning birinchi yarmida Rossiyadan O'rta Osiyo, xususan, Buxoro va Xivaga kelgan sayyoh elchilar orasida A. Negri, E. Meyendorf, A. Eversman, ruhoniy Budrin, A. Byorns, P. Demezov, N. Xanikov va boshqalarni sanab o'tish mumkin. 1804—1808 yillarda Buxoro amirigidan Rossiyaga Miralouddin, 1816 hamda 1819 yilda Mirza Muhammadyusuf qo'rchiboshi boshliq elchiliklar yuborildi. Rossiya ham Buxoro xonligi bilan aloqalarni muntazam olib borish uchun Buxoroga o'z elchi va missiyalarini yuboradi. Masalan, 1803 yilda Goverdovskiy. 1809 yilda Abdulnosir Subhonqulov elchiliklari va A. F. Negri boshliq katta diplomatik missiya yuboriladi².

¹ Мухаммаджонов А.Р, Неъматов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Ўзбекистон ССР Фанлар академияси. Тошкент- 1957. Б-11.

² Шу манба. Б-17

Buxoro amirligiga Rossiyadan 1820 yilda A. F. Negri boshchiligida elchilik yuborilgan yuborilgan. Elchilik tarkibiga oliy darajadagi ofisterlar guruhi, jumladan, V. D. Volxovskiy hamda E. A. Eversman (unga Troistkdan Buxoroga boradigan yo'l marshrutini chizish, astronomik kuzatishlar yordamida bosib o'tilgan yo'llar hamda O'rta Osiyoning xaritasini tuzish, elchilik mobaynida olib borilgan ishlarning hisobotini tayyorlash vazifasi yuklatilgan edi) va E. K. Meyendorf singari olimlar kiritiladi. F.Negri ekspiditsiyasiga Buxoro bilan savdo shartnomasini imzolash borasida diplomatik muzokaralar olib borish bilan birga O'rta Osiyoning geografik joylashuvishi va tabiiy boyliklari haqida, Buxoro amirligi va Xiva xonligining boshqaruv sistemasi, ichki qurilmasi va tashqi siyosati, uning ahvoli haqida ma'lumotlar yig'ish vazifasi yuklatiladi³.

Bu elchilik natijasida Rossiya Buxoro va Xiva davlatlari haqida juda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lib O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirish jarayonida ulardan unumli foydalanadi. XIX asrning birinchi choragida Buxoro va Rossiya munosabatlariga doir nashr etilgan manbalar orasida Negri elchiligi tarkibida O'rta Osiyoga kelgan G. Meyendorfnings «Orenburgdan Buxoroga sayohat...» nomli asari tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, asar fransuz tilida turkolog Amediy Jobert tahriri ostida 1826 yili Parijda nashr etilib, shu yilning o'zidayoq, nemistilidagi tarjimasi K. Xerm va V. Sheyder tahriri bilan bosilib chiqqan. Asarda o'rta asrlarda Buxoro va Rossiya munosabatlarining Sibir va Astraxan orqali olib borilishi va rus podsholari temuriylar bilan savdo muzokaralari olib borganliklari to'g'risida va Hindiston, Xitoyga o'tgan tranzit savdo yo'li Buxoro orqali o'tib, bu savdoda Buxoroning vositachilik rolini ko'rsatuvchi ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoroga kelgan elchilar orasida Ruhoniy Budrin Buxorodagi safardan qaytgach «1820 yilda Ruslar Buxoroda» nomli asar yozgan. Budrin esdaliklarining e'tiborga loyiq tomoni shundaki, u Buxoro ahlining turmush tarzini diqqat bilan

³ Лунин Б. В. История Узбекистана в источниках: известия путешественников, географов и ученых XVI - первой половины XIX вв. Ташкент: Фан, 1988. С. 191.; Арслонзода Р. А. Манбашунослик: муаммоли маърузалар матни. Фарғона, 2008. Б. 79-80.

kuzatgan va tarixchilar uchun muhim bo'lgan xalq hayotining maishiy tomonlari – hovuzlar, hammomlar, karvon saroylar, do'konlar, bozorlariga e'tibor bergan. XIX asrning birinchi yarmida Buxoroga kelgan bir elchilik 1833-1834 yillarda amalga oshirilib, unga P. I. Demezov rahbarlik qiladi. U Orenburg general-gubernatori V. Perovskiyning topshirig'i bilan Buxoroga keladi. Demezovning zimmasiga eng muhim topshiriqlardan O'rta Osiyo bozorida Hindiston va Afg'oniston orqali kirib kelayotgan ingliz mollari va ayg'oqchilari haqida ma'lumotlar yig'ish vazifasi yuklatiladi. Demezov bu yerga buxorolik savdogar Niyoz Muhammadning savdo karvoni bilan birga tatar mullasi Mirza Ja'far nomi ostida keladi va mahalliy tilni chuqur bilishi tufayli Demezov zimmasiga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajaradi.

Buxoro amirligiga uyushtirilgan diplomatik missiyalardan yana biri 1835-1836 yillarda uyushtirilgan bo'lib, unga sharqshunos Vitkevich boshchilik qiladi. Safardan qaytgach, Vitkevich o'sha paytda Orenburgda turgan mashhur olim Dalga o'z taassurotlarini so'zlab beradi, Dal esa uni qog'ozga tushiradi. 1983 yilda Vitkevichning safarnomasi chop etildi. Esdaliklarda Buxoro davlatining hududi, oqar suvlari, Zarafshon vodiysidagi obidalari xaqida, Buxoro shahri, qal'asi, devori va darvozalari, bog'lari, karvonsaroylari, masjid va madrasalari haqida batafsil ma'lumot beradi⁴.

Buxoro amirligi to'g'risidagi rusiyzabon manbalar orasida Sharqshunos olim Nikolay Vladimirovich Xanikovning «Buxoro xonligi tavsifi» asari alohida ajralib turadi. 1841-1842 yillarda Butenevning missiyasi tarkibida 8 oy davomida Buxoroda bo'lib, bir necha Sharq tillarini mukammal bilgan Xanikov asarida xonlikning umumiy tavsifi berilib, mamlakatning jug'rofiy va topografik holati (umumfoydalanuvchi binolar, saroy, masjid va madrasalar, qamoqxona, karvonsaroy, hammom va bozorlar), amirlikning yirik shaharlari (Samarqand: qal'asi va me'moriy obidalari, Qarshi: qal'asi, masjid va madrasalari), aholisi (o'troq va ko'chmanchi o'zbeklar, tojiklar va 97 ta o'zbek urug'ining nomi, turar-joylari va ovqatlari haqida), iqlimi haqida materiallar keltirilgan. Xulosa qilib

⁴ Арслонзода Р. А. Манбашунослик: муаммоли маърузалар матни. Фарғона, 2008. Б. 81.

aytganda Buxoro va Rossiya o'rtasida XIX asrning birinchi yarmida diplomatik savdo- sodiq aloqalari rivojlanib, bu aloqalarni o'rganishda shu davr elchilarining nashr etilgan asarlari tarixiy manba sifatida asosiy o'rinni egallaydi.

Анкета

1.	Фамилия	Сайфуллаев
2.	Исм	Бехруз
3.	Отасининг исми	Дилшод ўғли
4.	Туғилган йили	19.04.1994
5.	Ташкилот, лавозим	ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ МАГИСТРАТУРА ТАЛАБАСИ.
6.	(Телефон)	(+99893) 624-38-51
	(e-mail)	sayfullayev.behruz@mail.ru
7.	Йўналиш	Фан методологияси: (ижтимоий гуманитар) замонвий тадқиқотларда инновацион услублар.
8.	Иш мавзуси	Tarixiy talqinda XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasidagi aloqalarga oid manbalarning o'rni.